

YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING IJTIMOIIY- PSIXOLOGIK VAZIFALARI

Artikova Nasiba Babayarovna

Surxandaryo viloyati Termiz shahar 10-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ota-onaning o'rnini, maktab zimmasidagi majburiyatlar keltirilgan. Shuningdek, yosh oilalarni mustahkamlash uchun olib borilayotgan ishlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: oila, nikoh, oilaning shakllanishi, reproduktiv salomatlik

KIRISH

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ularning oilada olgan tarbiyalari, odobxloqlari katta ahamiyat kasb etadi. Kelajakda mustaqil oila quradigan yoshlar tarbiyasida ota-onaning ma'suliyati cheksizdir. Hayot davomida bolalar katta avlod vakillaridan o'ziga karshi jins vakillariga nisbatan munosabat to'g'risida anchagina ma'lumot oladilar, nikoh, oila haqida, xulq me'yorlarini o'zlashtiradilar. Ularda o'rtoqchilik, do'stlik, g'urur va burch singari tuyg'ular erta rivojlanadi. Bularning bari qimmatli bo'lishiga qaramay, hozirgi bizning tezkor hayotimizda bularning tabiiy ravishda yuz berishining o'zi kamlik qiladi. Shu sababdan, unga maxsus tayyorgarlik ko'rish vazifasi, asosan, maktab va oila zimmasiga yuklatiladi. Bunda yoshlar umr yuldoshi va ota-ona majburiyatlari, bola tarbiyasi bilan bog'liq majburiyatlarni bajarishga o'rganadilar. Bu borada I.V.Grebennikov shunday deydi: o'sib kelayotgan yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash o'z ichiga ushbu jihatlarni qamrab olmog'i lozim:

1. Nikoh-oila va demografiya xususida davlat siyosatini ochib beruvchi, shuningdek, nikohoila munosabatlari, oilaning o'rnini, oilaviy qadriyatlar, ota-ona va kelinkuyovlarning ijtimoiy roli xususida jamiyatning fikrini ifoda etuvchi ijtimoiydemografik;

2. O'z ichiga quyidagi axloqiy fazilatlarni: o'zga jins vakiliga nisbatan do'stona munosabatda bo'lish, ota-onasiga, katta-kichikka nisbatan hurmat, bolalar tarbiyasiga ehtiyoj, mas'uliyatlilik, ishonch, halollik, o'zini tutish, muloyimlik, yon bosish, umr yuldoshiga, bolalarga nisbatan burchni his etish, intim hissiyot madaniyati kabilarni qamrab oluvchi axloqiy-etnik;

3. Nikoh va oilaga oid qonunchilikdan boxabar bo'lish, oila huquqining ahamiyatga molik yo'riqnomalarini bilish, kelin-kuyovlarning bir-biriga, bolalarga va jamiyatga nisbatan majburiyatlarini bilish singari huquqiy;

4. Shaxsning rivojlanishi tushunchasini shakllantiruvchi o'smirlarning shaxslararo munosabatlarining ruhiy jihatlari, nikoh va oilaviy hayotning ruhiy asoslari, boshqalarning ruhiyatini tushuna bilishi, turmush va oila hayotida zarur

bo‘luvchi tuyg‘ularning rivojlanishi, muloqot qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish singari ruhiy;

5. Jinsiy hayot, shaxsiy gigiena masalalarini, erkak va ayolning jismoniy alohidaligi kabi bilimlarni o‘zida mujassamlashtirgan jismoniy-gigienik;

6. Bolalar tarbiyasida oilaning roli, uning pedagogik salohiyati, oilaviy tarbiyaning xususiyatlari, ota va onaning tarbiyaga yondashuvlari, ota-onalarda pedagogik madaniyatni oshirish yullari shakllanishi bilan bog‘liq pedagogik;

7. Oila jamg‘armasi, maishiy madaniyat, uy xo‘jaligini yuritish va boshqalarni o‘z ichiga olgan xo‘jalik-iqtisodiy. Oila avlodlar almashuvi jarayoni ta’sirida doimo o‘zgarib turadi. Yosh oilalar jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’naviy yangilanishi va yuksalishini muhim sub’ektlaridan bo‘lib, ijtimoiy hayotda ro‘y berayotgan murakkab jarayonlarga o‘z ta’sirini o‘tkazishda va taraqqiyotni harakatga keltirishida muhim ro‘l o‘ynaydi. Shuning uchun hozirgi vaqtda yoshlarni ma’naviy-axloqiy va ruhiy olamini shakllantirish va rivojlantirishni chuqur va atroflicha tahlil etish ilmiy -amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunga kelib o‘zbek oilalari ba’zi muammolarga duch kelib turibdi. Yoshlar salomatligi, ayollarning reproduktiv salomatligi, shar’iy nikoh, otalikni belgilash, ajrimlarning ko‘payishi, noto‘liq oilalarning ortib borishi, chin yetimlik ko‘rsatkichining ortishi va migratsiyasining ortishi kabi dolzarb muammolar o‘z yechimini talab etmoqda. Oila kodeksiga ko‘ra, shar’iy nikohlar qonun bilan kafolatlanmaydi. Musulmonlar idorasi muftiysining fatvosiga asosan, nikohi qayd etilmagan kelinkuyovlarga shar’iy nikoh o‘qish ma’n etiladi. Ko‘rilgan chora-tadbirlarga qaramasdan, respublikada shar’iy nikoh asosida oila qurayotganlar soni ortib bormoqda. Bu holat yolg‘iz onalar va otalikni belgilash kabi salbiy ko‘rsatkichlar oshib borishiga sabab bo‘lmoqda. Oila shakllanishi va rivojlanishiga salbiy ta’sir etuvchi jarayon nikohning bekor qilinishi, ya’ni oiladan ajralishdir. Nikoh erkinligi ajralib ketish erkinligini ham ko‘zda tutadi. Ajralganlarning ko‘pchiligi yosh oilalar bo‘lib, ularda hayotiy ko‘nikma va tajriba yo‘qligi hamda bir-biriga yon bosishni xohlamasligi ajralish uchun asosiy sabablaridan biriga aylangan. Yoshlarning oila qurishdagi ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy yetukligining past darajadali oilaning muvaffaqiyatli yashab ketishida bir qancha muammolarni yuzaga keltirmoqda va ajralishga sabab bo‘lmoqda. Ammo yoshlarni va tug‘ish yoshidagi ayollarni sog‘lomlashtirish yunalishida olib borilayotgan kompleks chora-tadbirlarga qaramasdan, yosh qizlar va ayollar o‘rtasida ekstragenital, ginekologik va onkologik kasalliklar sonining yuqoriligicha qolishi, nuqsonli va nogiron bolalar tug‘ilishi uchramoqda. Nikohga yetuklik tushunchasi ham o‘z navbatida o‘ta murakkab va nisbiy tushunchadir. Chunki inson doimo rivojlanib, takomillashib boruvchi, kasb-hunar faoliyatida yoki ma’naviy va axloqiy rivojlanishida muntazam yangidan-yangi cho‘qqilarga erishib boruvchi mavjudoddir.

XULOSA

Bugungi kunda yoshlar organizmida kasalliklarni aniqlash va davolash sifatini yaxshilash, sog'lom oila va sog'lom avlodni dunyoga keltirish uchun nikohlanuvchi yoshlarni nikohgacha tibbiy ko'rikdan o'tkazish tizimi faoliyat yuritmoqda. Ayni paytda O'zbekistonda oila muammolarini hamda oila-nikoh masalalarini o'rganish borasida katta ishlar olib borilmoqda. Lekin shunga qaramasdan, oila-nikoh munosabatlarida kuzatilayotgan ko'ngilsiz hodisalar mavjud bo'lib, muvaffaqiyatsiz oilalar, ajralishlar, noto'liq oilalar miqdorining ortib borayotganligi va shular bilan bir vaqtda hozirgi zamon oilalari o'zining an'anaviy vazifalarini (reproduktiv, tarbiyaviy, axloqiy, psixologik, iqtisodiy va boshqalar) talab darajasida bajara olmayotganligi ham kuzatilmoqda. Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda turli millat va elatlarning ahil-inoq, yashayotgani, tinchlik va xotirjamlik, osoyishtalik, erishayotgan yutuqlarimiz oilalardagi sog'lom ma'naviy muhit samarasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vazirlar Mahkamasining 31.12.2020 yildagi «Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 820-son qarori.
2. Usmanova Maxfuza. Bolalarda muloqot ko'nikmalarini shakllantirish. *Maktabgacha ta'lim jurnali*, 3(Preschool education journal). (2021). Retrieved from
3. Usmanova Maxfuza. OILADA BOLANING KUN TARTIBINI TO'G'RI TASHKIL QILISH. *Maktabgacha ta'lim jurnali*, 1(1). (2021).
4. Usmanova Maxfuza 5-6 YOSHDAGI BOLALARNI AXLOQIY TARBIYALASHDA
5. OILAVIY MAROSIMLARINING O'RNI. *Maktabgacha ta'lim jurnali*(2021)., 3(Preschool education journal).
6. Toshtemirova, D. (2021). NODAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TALIMNI TASHKIL ETISHNING MAZMUN MOHIYATI.
7. Toshtemirova, D. (2022). Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantiruvchi o'yin turlarining xususiyatlari. *Мaktabгacha таълим журнаи*, 1(Preschool education journal).
8. Toshtemirova, D. (2021). MTT VA OILA HAMKORLIGIDA BOLALARNI MILLIYLIK RUHIDA TARBIYALASH. *Мaktabгacha таълим журнаи*, 3(Preschool education journal).
9. Toshtemirova, D. S. Q. (2021). BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING O'YIN FAOLIYATIDAN FOYDALANISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI. *Academic research in educational sciences*, 2(11), 1068-1073.

10. Toshtemirova, D. S. Q. (2021). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MASHGULOT TALIM BERISHNING ASOSIY SHAKLI SIFATIDA. Academic research in educational sciences, 2(10), 922-926.
11. Toshtemirova, D. (2022). Bolalarni jismoniy rivojlantirishda ta'lim markazlaridan foydalanish. Maktabgacha ta'lim jurnali, 1(Preschool education journal).
12. Toshtemirova, D. (2022). OILAVIY NODAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINI TASHKIL ETISH TAMOIYILLARI. Maktabgacha ta'lim jurnali, 1(Preschool education journal).

